

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

IQTISODIYOT FAKULTETI

IQTISODIYOT VA MENEJMENT KAFEDRASI

**60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit”(qishloq xo‘jaligida) ta‘lim
yo‘nalishi
305-guruh talabalari uchun**

**XUDOYBERDIYEVA MARIFAT UMAROVNAning
“Menejment asoslari” fanidan**

**“Nizo va stressni boshqarish”
mavzusida ochiq amaliy darsining ishlanmasi**

Samarqand 2024

Tuzuvchi:

M.U.Xudoyberdiyeva – “Iqtisodiyot va menejment ” kafedrası assistenti.

Taqrizchilar:

X.U.Xudayberdiyev– Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsenti

I.Salamov – “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma
boshlig‘i, professor v.v.b.

R.F.Ro‘ziqulov

Amaliy o‘quv mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi

Mavzu: Nizo va stressni boshqarish.

O‘quv mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi modeli

Vaqt:80-daqiqa	Ta’lim oluvchi soni 17
O‘quv mashg‘uloti shakli va turi	Amaliy
O‘quv mashg‘uloti rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1.Nizo, ularning kelib chiqish sabablari va turlari. 2.Nizo jarayonidagi bosqichlar va oqibatlar. 3.Nizolarni boshqarish va ularni bartaraf etish yo‘llari. 4.Stress va uni boshqarish
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi menejment asoslari fani to‘g‘risidagi bilim (kunikma)larni shakllantirish (mustaxkamlash)	
O‘qitish natijasi	Ushbu mavzuni o‘zlashtirish natijasida o‘quvchida shakllanadigan asosiy bilim .ko‘nikma yoki kompetensiyalar.
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyat natijalari:
1. Nizo jarayonidagi bosqichlar va oqibatlar bilan tanishish	1 Nizo jarayonidagi bosqichlar va oqibatlar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish
2 Nizolarni boshqarish va ularni bartaraf etish yo‘llari tasnifini berish	2 .Nizolarni boshqarish va ularni bartaraf etish yo‘llarini tasniflaydilar
3. Stress va uni boshqarishini tushuntirish	3 Stress va uni boshqarishni aytib beradilar
O‘qitish metodlari	Ma’ruza Tushintirish. Ko‘rsatma berish , kitob bilan ishlash, mashq,suxbat,baxs,Aqliy xujum o‘yini, va boshqalar.
O‘qitish vositalari	Matnlar.yozuv taxtasi..proektor.kompyuter.,grafikli organizatorlar, model, chizma,grafiklar,diagrammalar,namunalar, elektron yo‘riqnoma.
O‘quv faoliyatini tashkil etish shakli	Ommaviy,jamoaviy guruxli,juftlikda, yakka tartibda.
O‘qitish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan guruxlarda ishlashga muljallangan xona.
Qayta aloqaning usul va vositalari	Tezkor so‘rov,savol-javob,test, misol va mashqlar, bajarilgan o‘quv topshiriqlarni baholash.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Ta'lim oluvchi
1- bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish (5 daqiqa)	<p style="text-align: center;">Tashkiliy qism: 1.O'quvchilarni mashg'ulotga tayyorgarligi va davomatini tekshiradi</p>	Mashg'ulotga tayyorlanadilar
2-bosqich .Asosiy (65daqiqa)	<p>Tayanch bilimlarini faollashtirish:</p> <p>.Uyga berilganvazifani nazorat qiladi hamda utilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarga savollar beradi, ularni baholaydi.</p> <p>Maqsad va vazifani belgilanishi:</p> <p>.Mashg'ulotni nomi,rejasi,maqsad va o'qitish natijalar bilan tanishtiradi.</p> <p>. Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar bilan tanishtiradi;</p> <p>.O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarni baholash mezonini va ko'rsatkichlari bilan tanishtiradi (ilova).</p>	<p style="text-align: center;">Uy vazifasini taqdim etadilar.Savollarga javob beradilar.Mavzu nomi va rejasini yozib oladilar.Diqqat qiladilar.Savollarga javob beradilar.Yozib oladilar.Diqqat qiladilar.Savollarga javob beradilar.Topshiriqni bajaradilar.Kichik guruxlarga bo'linadilar.Kichik guruxda ishlash qoyidasi bilan tanishadilar. Xar bir gurux o'z topshiriq varaqlari bo'yicha faoliyatini boshlaydi.Xar bir gurux sardori chiqib o'z ishlarini taqdim qilishlarini aytadi.Berilgan ko'shimcha savollarga javob beradilar.Guruh ish natijalarini o'zaro baholaydilar.Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.</p>
	<p>Ta'lim oluvchilar bilimini faollashtirish:</p> <p>.Tezkor-so'rov,savol-javob, aqliy hujum,,"o'ylang va juftlikda fikr almashing"va boshqa texnikalar orqali bilimlarni faollashtiradi.</p>	
	<p>O'quv material bayoni:</p> <p>Amaliy mashg'ulotning rejasi tuzilishiga muvofiq, o'qitish jarayonini tashkil etish bo'yicha xarakterlar tartibini bayon etadi.Asosiy xolatlarni yozdiradi.</p>	
	<p>o'quv materialini mustahkamlash:</p> <p>.Mustahkamlash uchun savollar beradi</p>	
	<p>Mashg'ulot yakuni:</p> <p>1.Faol ishtirok etgan o'quvchilarni javoblarini izoxlab baholaydi va rag'banlantiradi.</p>	
	<p>Uyga vazifa berish:</p> <p>2.Kelgusi mashg'ulotga vazifa va uni bajarish yuzasidan yo'riqnoma beradi (ilova).</p>	
	<p>Mashg'ulot yakuni:</p> <p>1.Faol ishtirok etgan o'quvchilarni javoblarini izoxlab baholaydi va rag'banlantiradi.</p>	
	<p>Uyga vazifa berish:</p> <p>2.Kelgusi mashg'ulotga vazifa va uni bajarish yuzasidan yo'riqnoma beradi (ilova).</p>	
	<p>Mashg'ulot yakuni:</p> <p>1.Faol ishtirok etgan o'quvchilarni javoblarini izoxlab baholaydi va rag'banlantiradi.</p>	
	<p>Uyga vazifa berish:</p> <p>2.Kelgusi mashg'ulotga vazifa va uni bajarish yuzasidan yo'riqnoma beradi (ilova).</p>	
3-bosqich YAkuniy (10- daqiqa)	<p>Mashg'ulot yakuni:</p> <p>1.Faol ishtirok etgan o'quvchilarni javoblarini izoxlab baholaydi va rag'banlantiradi.</p>	Baholari bilan tanishadilar. Topshiriqni yozib oladilar.

Mavzu. Nizo va stressni boshqarish.

Reja:

- 1.1.Nizo, ularning kelib chiqish sabablari va turlari.
- 1.2.Nizo jarayonidagi bosqichlar va oqibatlar.
- 1.3.Nizolarni boshqarish va ularni bartaraf etish yo'llari.
- 1.4.Stress va uni boshqarish. .

Kalit so'zlar: *nizo, ichki shaxsiy nizo, shaxslararo nizo, shaxs va guruh o'rtasida nizo, guruhlararo nizo, ochiq nizolar, yopiq nizolar, ob'yektiv nizolar, sub'yektiv nizolar, konstruktiv nizolar, destruktiv nizolar, simmetrik nizolar, aasimmetrik nizolar, funksional oqibat, disfunksional oqibat, stress.*

1.1. Nizo, uning kelib chiqish sabablari va turlari.

O'zbek tilining izohli lug'atida nizo tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi:

“Nizo – bu o'zaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik, dushmanlik, adovat orqasida tug'ilgan holat, munosabat, ixtilof, nifoq”.

Ishlab chiqarishda nizoli vaziyatlar turli sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin. Ulardan:

- mehnatni tashkil qilishdagi kamchiliklarni;
- haq to'lashning takomillashtirilmaganligini;
- yomon mehnat sharoitlarini;
- mehnat haqidagi qonunlarning buzilishini;
- rahbarlikning qoniqarsiz saviyasini;
- o'zaro munosabatlar madaniyatining past saviyasini va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Nizolarning asosan to'rt xili ko'p uchrab turadi

Tadqiqotlar va kuzatishlar bunday vaziyatlar: ishchining o'z ishidan qoniqmaganligi, o'ziga va korxonaga ishonchsizlik, shuningdek, xodimda asab buzar holatlarning tez-tez sodir bo'lib turishi natijasida vujudga kelishini ko'rsatadi.

Shaxslararo nizo hayotda eng tarqalgan nizolardir. Bunday nizolar, masalan: oilada:

- er bilan xotin o'rtasida;
- ota bilan farzand o'rtasida;
- ona bilan farzand o'rtasida;
- farzand bilan farzand o'rtasida va h.k.

ishlab chiqarishda:

- xodim bilan xodim o'rtasida;
- xodim bilan rahbar o'rtasida;
- rahbar bilan rahbar va h.k.

o'rtasida bo'lishi mumkin.

Shaxslar o'rtasidagi nizo ko'p hollarda u yoki bu masalaga bo'lgan nuqtai nazarlarining mos tushmasligi, rahbarlar o'rtasida resurslarni taqsimlash, xodimlar bilan rahbar o'rtasida esa ish sharoitini qoniqarsizligi kabilar yuzasidan vujudga kelishi mumkin. Bir lavozimga ikki nomzod qo'yilganda ham shu turdagi nizolar kelib chiqish hollari bo'ladi.

1.2.Nizo jarayonidagi bosqichlar va oqibatlar.

Nizoli vaziyatning tashqi unsurlari ham mavjud. Bular quyidagilardir:

- haddan tashqari hissiyotga berilish;
- fikrini aniq izhor eta olmaslik;
- bir-birini tushunishini xohlamaslik;
- asosga ega bo'lmagan noshukurlik va hokazo.

Nizo sabablari (2 bosqich) va uning kengayish ehtimoli (3 bosqich)ni o'z vaqtida sezish, (4 bosqich) nizoning yuzaga chiqmaslikka olib keladi. Agar jarayonga e'tiborsizlik bilan qaraladigan bo'lsa, u holda nizoning kelib chiqishi tabiiy (5 bosqich). Endi uni boshqarish (6 bosqich) zaruriyati tug'iladi. Boshqarishning samaradorligiga qarab, nizoning oqibatida funksional va disfunksional

ko‘rinishlarida bo‘lishi mumkin (7 bosqich).

Nizoning 7 funksional oqibati ma‘lum. Bu oqibatlar nizoni boshqarishning ijobiy samara berganligini ifodalaydi. Bundayholat qarshi tomonning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizo sabablari va ob‘yektlarini yanada chuqurroq tahlil qilishga, unga «tashxis» qo‘yishga undaydi.

1.3. Nizolarni boshqarish va ularni bartaraf etish yo‘llari.

Nizoli vaziyatlarni boshqarishning bir qator samarali usullari mavjud. Ularni quyidagi 2 guruhga bo‘lish mumkin:

- tarkibiy-tashkiliy usullar;
- strategik usullar.

Rahbar eng avvalo nizoni keltirib chiqaruvchi omillarning tahlilini qilishi, so‘ngra esa u yoki bu usulni qo‘llash bo‘yicha qaror qabul qilishi kerak.

Tarkibiy-tashkiliy usullarga quyidagilar kiradi:

- ishga bo‘lgan talabni tushuntirish usuli. Bu usul disfunktsional usulga mutlaqo zid bo‘lib, bunda har bir xodim va bo‘limlardan qanday natija kutilishi tushuntiriladi. Bu yerda ularga quyidagilar eslatiladi:

- erishishi lozim bo‘lgan natija ko‘lami;
- kim ahborotni topshiradi va kim uni qabul qiladi;
- mas‘uliyat, javobgarlik va vakolat tizimi;
- aniq siyosat, tartib-qoidalar va h.k.

Rahbar bu masalalarni o‘zi uchun aniqlashtirish maqsadida emas, balki har bir vaziyatda, har bir xodim va bo‘lim qay tarzda ish tutishini, ularni nima kutishini tushuntirib bermog‘i lozim.

- muvofiqlashtirish va integrasiyalash usuli. Bu usul og‘zaki buyruq zanjiri deb ataladi.

Boshqarishda mansablarga ko‘ra darajama-daraja bevosita itoat etish, bo‘ysunish tartibini o‘rnatish kishilarning o‘zaro harakatlarini, korxonada ichidagi axborotlar oqimini, qarorlar qabul qilishni tartibga tushiradi, muvofiqlashtiradi.

1.4. Stress va uni boshqarish.

Stress – inglizcha (stress) so‘zdan olingan bo‘lib, asabiylik, keskinlik degan ma‘nolarni anglatadi.

Asabiylik turli jismoniy va aqliy ishlarning haddan oshib ketishi, hamda xavfli vaziyat tug‘ilgan paytlarda, zarur choralarini zudlik bilan ko‘rishga majbur bo‘lganda vujudga keladigan ruhiy holatdir. Bunday holatga tushgan kishilarga nisbatan: “u asabiylashdi” deb aytishadi.

Shu ma‘noda asabiylik tushunchasi:

- salga asabiylashaveradigan, bo‘lar-bo‘lmasga qiziqib, tutaqib ketadigan, zardasi tez, jizzaki kishi;
- asablarning kasalligi tufayli yuz bergan, asablar faoliyatining buzilganligi natijasida yuzaga kelgan xastalik;
- asablarning qo‘zg‘alishi bilan bog‘liq bo‘lgan holat (janjal, baqiriq-chaqiriq) kabilar ma‘nosida talqin qilinadi.

Kanadalik buyuk fiziolog Gans Sels asabiylashishni odam yoki hayvon organizmining har qanday ta‘sirga o‘ziga xos munosib javob deb baholaydi. U uch bosqichga bo‘linadi:

1. Boshlang‘ich ta‘sirchanlik (emosional) tuyg‘usi (g‘allayon), a‘zoyi badandagi kuchlarni safarbarlikka tortilishi.

2. Qarshilik ko‘rsatish bosqichi.

3. Toliqish bosqichi.

Stress – bu oddiy va ko‘p uchrovchi holat. Qattiq bezovta bo‘lish, hayajon va uyqusizlikdan so‘ng uni hammamiz sezamiz. Ozgina stresslarning ziyoni bo‘lmasligi mumkin, ammo favqulodda stresslar insonga tashvish keltiradi.

1-ilova.

Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglamenti

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani tayyorlash – 20 min.
2. Ish natijalarini prezentatsiya orqali namoyish qilish – 5 min.
3. Jamoa bo'lib ishlash va guruhlarini baholash – 5 min.

2-ilova.

Guruh bilan ishlash qoidalari

Har biri o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;

Har biri berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;

Har biri o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari

mumkin; Har biri yordam so'raganlarga ko'mak berishlari

lozim;

Har biri guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

Har biri: "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz, yoki birga qutilamiz" atamasini yaxshibilishlari lozim.

3-ilova.

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)

Guruh	Yondoshuvning (to'liqligi, to'g'riligi)	Grafikda to'g'ri tasvirlash	Guruh faolligi	Muammoni faol yechilishi	Ballar yig'indisi
	(1,0)	(0,6)	(0,4)	(1,0)	(3,0)
1					
2					
3					

4-ilova.

O'quv topshiriqlar

**O'XSHASH JIXATLARINI KO'RSATING VA
DIOGRAMMADA IFODALAB BERING**

**NIZO VA UNING
SABABLARI**

**STRESS VA UNING
SABABLARI**

1-Topshiriq: Nizoning quyidagi kelib chiqish sabablarini jadvalga to'g'ri joylashtiring va yozilgan jadvalni tushuntirib bering:


- 1.Manmanlik, qaysarlik
- 2.Vazifalarning o'zaro bog'liqligi
- 3.Kommunikasiya - o'zaro aloqaning qoniqarsizligi
- 4.Maqsadlardagi har xillik
- 5.Resurslarni taqsimlashdagi adolatsizlik
- 6.Erkinlik, mustaqillik va o'z kadrini bilishdagi har xillik

1-jadval


Nizo sabablari

№	Nizo sabablari	Izoh
1.		Hattoki eng ulkan korxonalarda ham resurslar cheklangan bo'ladi. Rahbariyat materiallar mehnat va moliyaviy resurslarni o'z tasarrufidagi bo'limlarga umum korxonaga maqsadini amalga oshirish nuqtai nazaridan taqsimlashi kerak. Biriga asossiz ko'p, biriga oz taqsimlash so'zsiz nizoning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Hamma ham ko'proq undirib olish payida bo'ladi.
2.		Mehnat taqsimoti barcha bo'g'inlarni bir-biri bilan bog'lab qo'yadi. Bunday sharoitda bir kishi yoki bir guruh kishilarning bajaradigan ishi boshqa bir kishi yoki boshqa bir guruh kishiga bog'liq bo'lib qoladi. Masalan, ishlab chiqarish bo'limi xodimlardagi mehnat unumdorligining past darajada ekanligini ulardagi uskunalarining sifatsiz ta'mirlanganligi bilan bog'lab, ta'mirlash bo'limiga aybni to'nkayd. Ta'mirlash bo'limi esa o'z navbatida bo'lim uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni o'z vaqtida ishga qabul qilmagan kadrlar bo'limiga shunday e'tirozni bildiradi va x. Ko'rib turibsizki, noroziliklar hamma bo'g'inlarda bor. Aynan shular nizoni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.
3.		Ixtisoslashtirish qanchalik chuqurlashsa shunchalik bo'limlar ko'proq o'z e'tiborlarini korxonaning umumiy maqsadini bajarishga emas, balki o'z bo'limi maqsadini amalga oshirishga qaratdi. Masalan, sotish bo'limi o'zining ish ko'lamini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadida ishlab chiqarish bo'limidan imkoniyat boricha mahsulot assortimentini ko'paytirishni talab qiladi. Ammo, ishlab chiqarish bo'limi uchun mahsulot assortimentini xilma-xil qilib ishlab chiqarish emas, balki harajat va samaradorlik nuqtai nazardan assortimenti turli-tuman bo'lmagan mahsulotni ishlab chiqarish ma'qulroqdir. Ko'rib turibsizki, bu yerda ham manfaatlar turlicha.
4.		Bu – eng ko'p hollarda uchraydigan sabablardan hisoblanadi. Masalan, bo'ysunuvchi o'z fikrini aytishga har doim haqliman deb aytsa, rahbar bunga javoban: “Yo'q, siz fikringizni faqat biz so'rgan paytda aytishingiz mumkin” desa, o'ylaysizki nizo uchun vaziyat tug'ilmaydi deb. Tug'iladi, albatta. Yoki, tadqiqot bo'limidagi yuqori malakali xodim nima uchun o'z kadrini bilmasligi kerak. U ham maslahat berishga qodirku.
5.		Shunday xodimlar borki, faqat o'zining fikrini ma'qullaydi, murosaga hech ham bormaydi. Bunday odamlar g'alvaning ini. Ular bilan nihoyatda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kerak.
6.		Axborotning xoimlarga yetib bormasligi yoki uning juda sust bo'lishi nizo chiqish uchun ham sabab, ham oqibat bo'lishi mumkin. Agar rahbariyat xodimlariga o'z vaqtida yangi joriy qilinayotgan ish haqi tizimi to'g'risidagi axborotni yetkazmasa, demakki xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishdagi manfaatdorligi eskiligicha qoladi.

2-Topshiriq. Nizolarning asosiy xillarini yozing va xulosa yozing.




3-Topshiriq. Nizoning kelib chiqish va to'qnashish jarayoni modelini chizib oling va xulosa yozing



2-rasm. Nizoning kelib chiqish va to'qnashish jarayoni modeli.

4-Topshiriq. Stressning kelib chiqish sabablarini chizib oling va xulosa yozing.



3-rasm. Stress sabablari

Qo'shimcha topshiriqlar

5-Topshiriq. Internet tarmog'idan mazkur fanga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish. www.google.uz, www.ziyonet.uz, www.uzreport.com, www.gov.uz, www.uzbir.uz, www.agro.uz, www.uz, www.referat.uz

6-Topshiriq. Keltirilgan kalit so'zlar ma'nosini yozib keling:

Nizo, Ichki shaxsiy nizo, Shaxslararo nizo, Shaxs va guruh o'rtasida nizo, Guruhlararo nizo, Ochiq nizolar, Yopiq nizolar, Ob'yektiv nizolar, Sub'yektiv nizolar, Konstruktiv nizolar, Destruktiv nizolar, Simmetrik nizolar, Asimmetrik nizolar, FunkSIONAL oqibat, DisfunkSIONAL oqibat, Stress

Test savollari

1. «Menejment» so'zining ma'nosi nima?

- A. Boshqarish.
- B. Sotish.
- D. Talab va taklif.
- E. Tannarx

2. "Menejment" fanida qanday boshqaruv o'rganiladi?

- A. Tirik tabiatni boshqarish
- B. O'simlik dunyosini boshqarish
- D. Xodimlarni boshqarish
- E. Hayvonot dunyosini boshqarish

3. Menejmentda bosh maqsad nima?

- A. Xodimlarni boshqarish
- B. Resurslardan samarali foyda olish
- D. Naf keltiruvchi mahsulot sotish
- E. Boshqaruv jarayonini o'rganish

4. Fanning predmeti nima?

- A. Biror narsaga o'zining ta'sirini o'tkazuvchi, yoki uning qatnashuvi ta'siridagi qandaydir sabab yoki omillar
- B. Maqbul qaror qabul qilish maqsadida matematik uslublar va hisoblash mashinalarini keng miqyosda qo'llash
- D. Boshqariluvchi ob'yekt to'g'risidagi ma'lumotlarni rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to'plash

E. Boshqaruv jarayonidagi kishilarning munosabatlarini, boshqaruv qonunlari, tashkiliy tarkibi, texnika texnologiyasini o'rganish

5. "Boshqariluvchi ob'jekt tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganiladi" ta'rifi boshqarishning qaysi tahlil usuli haqida?

- A. Vaziyatli yondashuv
- B. Tarkibiy yondashuv
- D. Kompleksli yondashuv
- E. Tizimli yondashuv

6. Qaysi javobda Menejment tamoyillarini keltirilgan?

- A. Vaziyatli yondashuv, Tarkibiy yondashuv, Kompleksli yondashuv, Tizimli yondashuv
- B. Demokratiyalash, Iyerarxiya, Rejalashtirish, Yakkahokimlik, Ilmiylik, Qayta aloqalar, Javobgarlik
- D. Demokratiya, Iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash, Yuksak ma'naviyat, Milliy xavfsizlikni ta'minlash
- E. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi Davlat asosiy islohotchi Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi Kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish Bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tib borish.

7. Qaysi javobda Boshqaruv sub'yektining ta'rifi keltirilgan?

- A. Biror narsaga o'zining ta'sirini o'tkazuvchi, yoki uning qatnashuvi ta'siridagi qandaydir sabab yoki omillar
- B. Maqbul qaror qabul qilish maqsadida matematik uslublar va hisoblash mashinalarini keng miqyosda qo'llash
- D. Boshqariluvchi ob'jekt to'g'risidagi ma'lumotlarni rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to'plash
- E. boshqaruv jarayonidagi kishilarning munosabatlarini, boshqaruv qonunlari, tashkiliy tarkibi, texnika texnologiyasini o'rganish

8. Qaysi javobda O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish tamoyillari keltirilgan?

- A. Vaziyatli yondashuv, Tarkibiy yondashuv, Kompleksli yondashuv, Tizimli yondashuv
- B. Demokratiyalash, Iyerarxiya, Rejalashtirish, Yakkahokimlik, Ilmiylik, Qayta aloqalar, Javobgarlik
- D. Demokratiya, Iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash, Yuksak ma'naviyat, Milliy xavfsizlikni ta'minlash
- E. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, Davlat asosiy islohotchi, Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi, Kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish, Bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tib borish.

9. Qaysi javobda Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda davlatni boshqarish tamoyillari keltirilgan?

- A. Vaziyatli yondashuv, Tarkibiy yondashuv, Kompleksli yondashuv, Tizimli yondashuv
- B. Demokratiyalash, Iyerarxiya, Rejalashtirish, Yakkahokimlik, Ilmiylik, Qayta aloqalar, Javobgarlik
- D. Demokratiya, Iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash, Yuksak ma'naviyat, Milliy xavfsizlikni ta'minlash
- E. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, Davlat asosiy islohotchi, Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi, Kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish, Bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tib borish.

10. "Kanban" usulini qanday tushunasiz?

- A. To'rt maqsadga oid miqdoriy ko'rsatkichlar belgilanib, hamma resurslar shu maqsadga erishishga yo'naltiriladi.
- B. Korxonada (firmada) o'z oldiga qo'ygan iqtisodiy natijaga erishish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borishni nazarda tutadi
- D. Yaponlarga tegishli bo'lib, boshqaruv ilmi tarixida eng samarali hisoblanadi. U ishlab chiqarishning uzluksiz harakatini ta'minlovchi boshqaruv tizimi sifatida xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantirib, iste'molchilarga yetkazib berishni ta'minlaydi.
- E. Hayvonot dunyosini

11. O'zbekistonda davlat boshqaruvi qanday shaklda?

- A.Federatsiya
- B.Suveren demokratik respublika
- D.Monarxiya
- E.Avtonom Respublika

Nazorat uchun savollar.

1. Nizo nima?
2. Nizolarning kelib chiqish sabablarinimada?
3. Nizolarning qanday xillarini bilasiz?
4. Shaxslararo va shaxs bilan guruh o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishiga sabab nima?
5. Guruhlararo nizolar to'g'risida nimalar deya olasiz?
6. Rahbar nizoni bartaraf qilish uchun qanday yo'l tutishi kerak?
7. Stress nima?
8. Stressning sabablari nimada?
9. Stress qanday boshqariladi?